TALABALARDA AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Xudayberdiyev Abdumadjid Abdujalilovich, Guliston Davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan talabalarning axborot madaniyatini rivojlantirishning umumiy omillari to‘g‘risida bo‘lib, bunda axborot madaniyatini rivojlantirishning tamoyillari va vazifalari haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: media, savodxonlik, media savodxonlik, media ta’lim, axborot texnologiyalari, multimedia, ommaviy axborot vositalari.

ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. Данная статья посвящена общим факторам развития информационной культуры студентов, обучающихся в системе высшего образования, содержит представления о принципах и задачах развития информационной культуры.

Ключевые слова: медиа, грамотность, медиаграмотность, медиаобразование, информационные технологии, мультимедиа, СМИ.

FACTORS OF DEVELOPMENT OF INFORMATION CULTURE AMONG STUDENTS

Abstract. This article is based on general factors of the development of information culture of students, education and the system of higher education, soderjit predstavleniya o principah i zadachakh razvitiya of information culture..

Keywords: media, literacy, media literacy, media education, information technology, multimedia, media.

Kirish. Bugungi kunda dunyoda axborotlashtirish va globalizatsiya jarayonlari ta’sirida keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta’limda axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, Internet, global va ijtimoiy tarmoqlaridan foydalanish yuqori sur’atlarda rivojlanmoqda. Oliy ta’lim muassalarida keng qo‘llanilayotgan elektron ta’lim deganda ma’lumotlar bazasida mavjud bo‘lgan va ta’lim dasturlarini amalga oshirish jarayonida foydalaniladigan axborot, unga ishlov berishni ta’minlovchi axborot-kommunikatsion texnologiyalari, texnik vositalar, shuningdek, tegishli axborotni aloqa liniyalari

bo‘ylab uzatishni, ta’lim oluvchilar va ta’lim beruvchilar o‘zaro hamkorligini ta’minlovchi axborot-telekommunikatsion tarmoqlardan foydalanish orqali tashkil etiladigan ta’lim jarayoni tushuniladi. Mazkur tushuncha bir qator adabiyotlarda “e-learning” (“e-Learning”), “e-education” va boshqa ko‘rinishlarda ham uchraydi. Bu sohaga tegishli atamashunoslikda bir ma’noli yondashuvning yo‘qligi elektron o‘qitish nazariyasining muhim muammolaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

YUNESKO ta’rifiga ko‘ra: e-learning (elektron ta’lim) - Internet va multimedia yordamida o‘rganish. Birinchi marta (professional muhitda) e-learning (elektron ta’lim) atamasi 1999-yil oktyabr oyida Los-Anjelesda CBT Systems seminarida ishlatilgan. YUNESKO elektron ta’lim atamasi va konsepsiyasi o‘rniga milliy tillarga tarjimadan foydalanishni tavsiya etmaydi, chunki bu atama juda o‘ziga xos tarkibga ega va u har doim ham tarjima orqali etarli darajada uzatilmaydi.

Mazkur masala bo‘yicha har tomonlama umumlashgan nuqtayi nazar Katalon universiteti olim-tadqiqotchilari jamoasi tomonidan ilgari surgan. Ular elektron ta’lim mohiyatini tushunish borasida quyidagi yondashuvlarni ajratib ko‘rsatishgan:

elektron ta’lim berishni axborotli kommunikatsiyaga mo‘ljallarini olish nazaridan – ta’limning muloqotlarini zamonaviy kommunikatsion vositalari orqali amalga oshirishdan iborat;

elektron o‘qitishda ta’limning paradigmalari orqali ta’limiy jarayonlarga innovatsiyani ta’sirli yondashuvlarini amalga oshirishdan iborat. Bunday yondashuvlar xar-xil raqamli texnologiyalarni resursidan foydalanib ta’lim yo‘nalishiga ega interfaol ochiq muhitni yaratishni ko‘zda tutadi.

Jahon miqyosida globallashuv jarayoni, texnik taraqqiyot, turli millat, elatlarning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa sohalar bo‘yicha yaqin hamkorligi, birlashishi ro‘y bermoqda. Ana shu sabablar ham, Vatanimizning dunyo hamjamiyatida taraqqiyparvar davlat sifatida tanilib, o‘z mavqei va o‘rniga ega bo‘lishi ham ayniqsa, istiqbolimiz egalari-yoshlarimizdan xorijiy tillarni mukammal bilishini taqozo etadi.

Ta’limning o‘rni – bilim, qadriyat va madaniy me’yorlarni yoshlarga uzatishni ta’minlashdagi bu hol ta’limda axborot texnologiyalarini axborot almashish, qayta ishlash va uzatish vositasi sifatida harakat qiladi. Axborot va axborot jarayonlari ijtimoiy hamkorlikning eng muhim tarkibiy qismlari bo‘lib, ular asosida taraqqiy etadigan jamiyat quriladi.

Axborotlashtirish jarayoni zamonaviy inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga, jumladan, oliy ta’limga ham ta’sir ko‘rsatdi. Axborotlashtirish sharoitida zamonaviy fuqarolik jamiyat a’zolarini o‘qitish zarurligi, ham davlat, ham xalqaro miqyosda e’tirof etilmoqda.

Shunday qilib, 2018-yilda O‘zbekiston hukumati tomonidan "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi dastur ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Bu dasturda insonning, o‘quv faoliyati ham qamrab olingan bo‘lib, axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarni qo‘llab samaradorlikka erishish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va takomillashtirish, raqamli jamiyatda xavfsiz axborot muhitini ta’minlash kabi masalalar qaralgan.

Ushbu dissertatsiya tadqiqotining ustuvor vazifalari: fan va ta’lim sohasida raqamli xizmatlarni rivojlantirish; ilmiy-tadqiqot loyihalarini ishlab chiqish; yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash; ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasini oshirish; bilingval elektron ta’lim muhiti asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish kabilardir.

Dinamik rivojlanayotgan axborot maydonida faoliyat yuritadigan zamonaviy mutaxassis kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari yordamida axborotni to‘plash, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish va undan foydalanish bilan bog‘liq ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Bir tomondan, katta miqdordagi axborotlarga tezkor kirish imkonini beruvchi global tarmoqning doimiy rivojlanishi atrof olam haqida kerakli ma’lumotlar olishni osonlashtiradi. Ammo, boshqa tomondan, axborotni ya’ni, muhim, ishonchli, dolzarb va zaruriy ma’lumotlarni topish yanada murakkablashib borayotganligini ham e’tiborga olish zarur. Axborot oqimida erkin harakatlana olish uchun inson yoshlikdan boshlab shakllanish lozim bo‘lgan axborot madaniyatiga ega bo‘lishi kerak.

“Kompyuter savodxonligi”, “axborot savodxonligi va axborot madaniyati” tushunchalarining ta’riflarini qiyosiy tahlil qilamiz. Yuqoridagi tushunchalarning har birida insonning axborot bilan o‘zaro ta’sirining murakkab hodisasi tasvirlanadi. Bu tushunchalar doirasiga bir qancha komponentlar kiradi: axborotni qidirish, topilgan axborot manbalarini tahlil qilish va tanqidiy baholash qobiliyati, o‘quv, kasbiy yoki boshqa faoliyatda yuzaga keladigan turli muammolarni hal qilish uchun ulardan ijodiy foydalanishdir.

Media va axborot savodxonligi konsepsiyasi umuminsoniy huquqlarga asoslanadi hamda ayrim shaxslar, jamoalar va butun millatlar so‘z erkinligi huquqi va axborotdan foydalanish erkinligi huquqidan foydalanishining asosiy sharti deb hisoblanadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasida qayd etilishicha, “Har bir inson e’tiqod erkinligi va uni erkin ifoda qilish huquqiga ega; bu huquq hech bir to‘siqsiz o‘z e’tiqodiga amal qilish erkinligini hamda axborot va g‘oyalarni har qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qat’i nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o‘z ichiga oladi”.

YUNESKOning media va axborot savodxonligi to‘g‘risidagi nashrlarida ta’kidlanadiki, “media va axborot savodxonligini o‘zlashtirgan fuqarolar:

1) tegishli texnologiyalardan foydalangan holda axborot va mediakontentni olish, baholash, yaratish va tarqatish layoqatiga ega bo‘ladi”. Bu odamlar:

2) o‘zlarining axborot va OAV bilan ishlash sohasidagi huquqlarini, shuningdek, o‘z ixtiyoriga bepul, mustaqil va turli-tuman axborot va mediatizimlar berilishi bo‘yicha talab uchun o‘z mas’uliyatini tushunadi va biladi. Media bilan munosabatda ular:

3) axborot va media ta’minotchilari roli va funksiyasini, shuningdek, ushbu funksiyalarning amalga oshirilishi shartlarini tushunadi. Bu hali hammasi emas, o‘zaro axborot almashishning faol ishtirokchisi bo‘lgani holda, ular:

4) bilim yaratishga va ularni keng ko‘lamda tarqatishga qodir.

Ilmiy va texnologik taraqqiyot konsepsiyasi “axborot madaniyati” tushunchaning keng ma’noda o‘rganishga olib keldi. Bu atama informatika,

kibernetika, axborot nazariyasi, semiotika va hokazolardan foydalanib, ta’limda axborot bilan ishlashning yangicha yondoshuvi va tamoyillarini amalga oshirish imkonini beradigan fanlar bilimlarini o‘zlashtirdi.

Axborot madaniyati xabarlarni saralash, ularning ahamiyatli jihatlarini belgilab olish, sohalarga ajratish, sofligiga e’tibor qaratib munosabat bildirish, g‘oyaviy asoslarini aniqlash, xabar manbaini topishda namoyon bo‘ladi. Axborot madaniyatining bir qator vazifalari mavjud. Ular:

bilish vazifasi (axborot iste’molchila rining faoliyatini ta’minlash uchun tarixiy vorisiylikni saqlashga qaratilgan bilimlarni yetkazadi);

tartibga solish vazifasi (real ideallar yordamida ijtimoiy, siyosiy, huquqiy me’yorlarning amalda ifodalanishini ta’minlaydi);

tarbiyaviy vazifasi (shaxsning intellektual rivojiga yordam berib, ijtimo iy, siyosiy, huquqiy me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtirishga, qiziqishning yuzaga kelishiga, faoliyat uchun ma’lum ustanovka (yo‘l-yo‘riq)larni tarkib toptirishga ko‘maklashadi);

mafkuraviy vazifasi (dunyoning ijti moiy, iqtisodiy va siyosiy hayotiga oid ma’ lumotlarni biron-bir g‘oya manfaati asosida etkazadi);

xabar berish vazifasi (sub’ektlarga dunyoda sodir bo‘layotgan voqea-hodisa hamda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlar haqida ma’lumot etkazadi);

tashxis qo‘yish vazifasi (joriy ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy voqeliklarni baholaydi);

prognostik vazifasi (ijtimoiy, iqtiso diy va siyosiy jarayonlarning yo‘nalishini oldindan belgilash, ularning yuzaga kelishi, kechish bosqichlariga oid ehtimoliy ma’lumot taqdim etadi) va boshqalar.

Vaqt o‘tishi bilan madaniyatshunos olimlar axborot madaniyatini shaxs va turli ijtimoiy guruhlar madaniyatining tarkibiy qismi deb hisoblay boshladilar. Shunday qilib, “shaxsning ta’limda axborot madaniyati” tushunchasi paydo bo‘ldi.

“Axborot savodxonligi” deganda, mutaxassisning kerakli axborotni tushunishi, izlab topishi hamda kasbiy faoliyatda ularni qo‘llashi mumkin bo‘lgan malakaga ega bo‘lishi tushuniladi. Birinchidan, “axborot savodxonligi” tushunchasi axborot bilan ishlashning texnologik tomonini qamrab olgan, ikkinchidan, ta’lim dasturi asosida uni shakllantirish maqsadli amalga oshirilgan. Shuning uchun “axborot savodxonligi” tushunchasi qisman kompyuterda ishlash savodxonligini ham o‘z ichiga oladi.

“Axborot madaniyati” tushunchasi quyidagi mazmunlarni o‘zida mujassam etadi:

inson bilim egallashning zamonaviy vositalari, qayta ishlash va tizimlashtirish malakasiga ega bo‘lishini;

tabiat va jamiyatda kechayotgan axboriy jarayonlarning mohiyatini tushunishni; faoliyat sohasiga oid xususiyatlari hamda turli manbalar bilan ishlashni bilish, axborotni tahliliy, sintetik qayta ishlash asoslarini o‘rganishni va boshqalar.

Shaxsning axborot madaniyati aynan ma’lumotlardan foydalanish nuqtasida shakllanadi, shaxs shakllanishi darajasida bu vazifani kutubxona bajaradi va aynan

shu o‘rinda axborot savodxonligi va mediasavodxonlikni shakllantirish faoliyatiga yo‘l ochish kerak. Bu erda bugungi kunda ushbu ikkita tushuncha birlashib ketgan.

Media va axborot savodxonligi tushunchasining yana bir muhim qismi - bu axborot madaniyatidir. Uni inson umumiy madaniyatining bir qismi, “an’anaviy va yangi axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda axborotga bo‘lgan ehtiyojlarni muvofiq qondirish bo‘yicha maqsadli va mustaqil faoliyatni ta’minlovchi dunyoqarash hamda bilim va hunarlar tizimining yig‘indisi” deya tavsiflash mumkin. Bunga media sohasidagi moddiy va intellektual qadriyatlarning yig‘indisi - mediamadaniyat chambarchas bog‘liqdir.

A. S. Karmin ta’kidlaydiki, “Jamiyat ma’naviy madaniyatga e’tibor bermay, texnologik madaniyat darajasini ko‘tarsa, ma’naviy qadriyatlarni unutish xavfi tug‘iladi, demak, zamonaviy axborot madaniyati shaxs umumiy madaniyatining bir qismi bo‘lib, axborot jamiyati va ta’limning ajralmas qismi hisoblanadi. U batafsil tahlil va har tomonlama o‘rganishni talab qiladi”.

Ta’limda axborot madaniyati tushunchasi shaxsning axborot faoliyatini muayyan madaniy muhit doirasida ko‘rib chiqish imkonini beradi, shu bilan insonning axborot sohasidagi olingan bilimlarni tabiiy muhitda qo‘llash imkoniyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni yuzaga keltiradi. Tadqiqotchi olim R. Samarov fikriga ko‘ra “Axborot madaniyati tushuncha sifatida nafaqat mutaxassisni tayyorlash jarayonida, balki kasbiy tarbiya tizimida ham muhim omil va umumiy madaniyatning tarkibiy qismi“ deb hisoblanadi. Axborot madaniyati axborot bilan maqsadli ishlash, axborotni rasmiy qo‘lga kiritish, uni ilmiy uslublar yordamida qayta ishlash, o‘z vaqtida uzatish, zamonaviy vositalar hamda usullarni qo‘llay olish malakasi va ko‘nikmasiga ega bo‘lishdir.

Media savodxonlik ma’lumotlar, axborot va bilimlarni yaratish, saqlash, uzatish va taqdim etishni ta’minlaydigan turli formatlardagi ma’lumotlar bilan ishlash uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar majmuini nazarda tutadi.

Media va axborot savodxonligi 2007-yilda UNESCO tomonidan taklif etilgan keng qamrovli tushunchadir. U axborot savodxonligi va mediasavodxonlik bilan bog‘liq barcha kompetensiyalarni, shu jumladan raqamli yoki texnologik savodxonlikni ham qamrab oladi.

Media va axborot savodxonligi – bu ijodiy faoliyatda barcha zarur vositalardan foydalangan holda axborot va media mahsulotlarini samarali olish, tahlil qilish, tanqidiy baholash, talqin qilish, foydalanish, yaratish va tarqatish imkonini beradigan bilim, ko‘nikma, munosabat, malaka va amaliyotlar majmuidir.

Internet savodxonligi – ta’limda axborot savodxonligining muhim elementi. Internet savodxonligi lokal va global tarmoq, xususan, uning qurilma darajasida (ulanish masalalari) va dasturiy ta’minot darajasida tashkil etilishi (veb-sahifalarni ko‘rish va yaratish, qidiruv tizimlari bilan ishlash uchun maxsus dasturiy ta’minotdan foydalanish) haqidagi bilimlar majmui sifatida talqin etiladi.

Bu tuzilma asosida kompyuter savodxonligi butun tizimning o‘zagi ekanligini, faqat ta’limda kompyuter savodxonligi asosida axborot savodxonligi va madaniyati shakllanganligini tushunishimiz mumkin. Kompyuter savodxonligi ko‘p jihatdan kompyuter texnologiyalari va axborotni qayta ishlash usullarining (masalan,

kompyuterlar) o‘ziga xos namunalarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, axborot savodxonligi esa, kelib chiqishidan qat’iy nazar, axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Xuddi shuning uchun ham axborot savodxonligi, media savodxonlik va Internet savodxonligi kabi yordamchi komponentlarni o‘z ichiga oladi. Inson va axborotning o‘zaro ta’sirini tavsiflovchi juda keng va atroflicha tushuncha axborot madaniyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev B. B. Intelligent systems and their development technology. Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915. Vol. 10. Issue 4. April. 2022. – P. 109-114.
2. Abdullayev B. B. Intellektual tizimlarning ta’lim jarayonidagi roli. O‘zMU xabarlari. 2021. 1/6/1-son ijtimoiy gumanitar fanlar turkumi. – B. 31-34.
3. Abdullayev B. B. Ta’lim jarayonida intellektual tizimlar va ularni ishlab chiqish texnologiyasi O‘zMU xabarlari. 2022. 1/4/1-son ijtimoiy gumanitar fanlar turkumi. – B. 34-37.
4. Кузнетсова М. А. Формирование информационноу культуры у студентов вуза в рротсессе обучениуа: дис. ... канд. ред. Наук: 13.00.08 / [Чуваш. гос. ред. ун-т им. И. УА. Уаковлева].- Чебоксары, 2009. – 250 s.
5. Кармин А. С. Философиуа культуры в информационном обществе: рроблемы и рерсрективы. Текст. / А. С. Кармин // Ворросы философии.- 2006. - № 2.- С. 61.
6. Mamarajabov M. E., Abdullayev B. B. To develop students’ skills and abilities to use intelligent systems in e-learning environment. Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915. Vol. 10. Issue 6. June. 2022. – P. 528-533.
7. Muratova N. Jurnalistikada media va axborot savodxonligi. – Toshkent: Baktria press, 2019. – 112 b.
8. Samarov R., Sattorov Yo. Axborot madaniyati va uni shakllantirishning nazariy-amaliyahamiyati. Zamonaviy ta’lim/ sovremennoe obrazovanie jurnali. 2014. 1-son.
9. https://www.techrepublic.com/article/10-things-you-have-to-know-to-be-computer-literate/